INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://science-research.org.uz/index.php/ITSE

BUXORO AMIRLIGI VA QO'QON XONLIGINING O'ZARO MUNOSABATLARIDAGI "QOCHOQ XONZODA" LAR

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
Xudoyberdiyev Baxtiyor Bobomurod o'g'li.
Xudoyberdiyevb59@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX asrda Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining o'zaro olib borgan siyosiy aloqalarida Ming sulolasi "Qochoq xonzoda"larining o'rni tahlil etilgan.
Kalit so'z: Xonzoda, Otaliq, Xijriy, Voliy, Mingboshi, qamal, jig, mashvarat, , janubiy oltoy.
Аннотация: В данной статье анализируется роль «беглых ханзод» династии Минг в политических отношениях между Кокандским ханством и Бухарским эмиратом в XIX веке.
Ключевые слова: ханзода, аталык, Хиджрий, вали, мингбаши, осада, джиг, мажлис (машварат), Южный Алтай.
Annotation: This article analyzes the role of the "Fugitive Khanzadas" of the Ming dynasty in the political relations between the Kokand Khanate and the Bukhara Emirate in the 19th century.
Keywords: Khanzada, Ataliq, Hijriy, Vali, Mingboshi, siege, jig, council (mashvarat), Southern Altai.

Kirish: Ashtarxoniylar hukmronligining so'ngi davrida siyosiy bosh-boshdoqlik va o'zaro urushlardan, Farg'ona vodiysi hududlarida yana bir davlat Qo'qon xonligi tashkil topdi. Mang'itlarning hokimiyatga kelishi bilan vaziyat yanada yomonlashdi. Farg'ona vodiysini o'zining azaliy yerlari deb hisoblagan amirlik vakillari hududga davo qila boshladi. Har ikkala davlat siyosiy ham o'zining siyosiy hokimiyatini rasmiylashtirish uchun turli usullardan foydalanishdi. Ikki davlat o'rtasidagi bu kurashga ma'lum ma'noda ichki kuchlarning ham hissasi bor edi. Shunday bir vaziyatda Qo'qon xonligining ming sulola xonzadalari ham ma'lum ro'l o'ynadi va ichki ziddiyatlarning yanada kuchaydi. Taxt uchun kurashlar va turli gina kudratlardan Buxoro xonligi foydalanishga harakat qildi. Bunday holat ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada yomonlashishiga sababchi bo'ldi. Bu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda xonzodalar ma'lum darajada yirik ro'l o'ynagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Mavzu tarixshunoslik va manbashunoslik tahlillariga asoslanadi. Shunga ko'ra mavjud adabiyotlarni ikki guruhlar turkumlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ulardan birinchi guruhga mahalliy manbalar, ikkinchi guruhga chet el tadqiqotlarini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi guruhdagi manbalarga Xudoyorxonzodaning "Anjum at-tavorix", Muhammadhakimxon To'raning "Muntahab at-tavorix", Niyoz Muhammad Xo'qandiyning "Ibratul Xavoqin", Xoliqulov Ahmadjon Boymuhammadjonovichning "Buxoro amirligining tashqi siyosiy aloqalari" va Mirza Olim ibn Mirza Rahim Toshkandiyning "Ansab as-salatin va tavarix al-xavokin". kabi shaxslarning asarlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruhga V Nalivkinning "Kratkaya İstoria Kokandskogo Hantsva", Huseyin Shenning "Research article Kokand khanate in period of Shir Alixan" va P.P. Ivanovning "Ocherki po Istorii Sredney Azii" kabi shaxslarning asarlarini o'z ichiga olingan va tahlil etilgan.

Tahlil va natijalar: Buxoro amirligi Qo'qon xonligi sulola vakillari uchun yashash va hukmdor qarindoshlari qahr-g'azabidan qochib boradigan asosiy davlatga aylangan edi. Bunga juda ko'p misollarni ko'rsatish mukin bo'ladi. Hatto Qo'qon hukmdorlari eng odillaridan biri deb qaraladigan, Norbo'tabiyning (1763-1798) ham ba'zi qarindoshlarini bunga misol tariqasida keltirish mumkin. "Anjum at-tavorix" asaridagi malumotni bunga misol tariqasida olishimiz mumkin. "Amirzoda Xojibek akasi Norbo'ta Abdulxamidxondan bexuda xadiksirab, zamin-u zamon ulardan to'da bo'lgan

bir nechta qitmir va buzg'unchi kishilarning ig'vosi bilan Toshkentga qochib ketib, u yerdan Buxoroga bordi." [1]deb takidlaydi. Bu vaqtda Buxoro hukmdori Doniyolbiy o'z ajali bilan vafot etadi. Amirlik taxtiga Shohmurod (1785-1800) chiqadi. Xojibek Shohmurod huzurida izzat ikrom bilan kun kechirgan. Amir Shohmurod tashqi siyosatda Qo'qon xonligiga oqilona siyosat yuritganligi va Xojibekning ham taxtga unchalik ishtiyoqi yo'qligi bilan birga akasi Norbo'tabiyning iliq muomalasi vaziyatni keskinlashtirmaydi.

Umarxonning avlodlari o'rtasida munosabatlarning yomonlashish holatlari mavjud. Muhammadalixonning ukasi Sulton Mahmud ba'zi sabablarga ko'ra Qo'qondan badarg'a bo'lib, rasman Buxoro hududi hisoblangan Shahrisabz bekligidan panoh topadi. Shahrisabz voliysi Doniyolbiyning qiziga uylanib bir muddat tinch yashab yuradi. Muhammadalixon xonlikni Buxoro amirligi hududining bir qismi hisobiga kengaytirishga harakat qiladi va Janubiy Oltoy tog'i etaklaridagi Tojiklarni bo'ysundirgan. Anjum at-tavorix asarida bu voqea quyidagicha tariflanadi: Bu sodda xonzodani (Sulton Mahmud) va'da va maktublar bilan avrab Shahrisabzdan Xisor tarafiga olib o'tib, Buxoro amiri uni molu davlat va askar bilan ta'minlab bo'lgach Qorategin viloyatiga olib bordilar. Xijriy 1250/1834 yili Kulob, Qorategin va Darvoz hokimlari Otaliqni (Shaxrisabz voliysi Doniyolbek) kuyovi bo'lgani uchun o'zlariga yaqin tutib, unga madad berish uchun birlashdilar. [1]

Xonning ukasi Sulton Mahmud quyidagi xatni yozadi. «Siz, amir janoblari, hozirgi kunda Movarounnahrning eng kattasi va ulug'i hisoblanasiz. Bugun bizga aniq ma'lum bo'ldiki, Muhammadalixon akamiz bitta ayol uchun Ahmadiy dinidan voz kechibdi. Siz janoblari uchun vojibdurkim, unga tanbeh bergaysiz. Agar Siz janoblari bu ishda hayo qilib, orqaga sursangiz, u holda bizga ruhsat bering, bu savobni biz ado eturmiz.». Shu xatni yozib, darhol amir Nasrullohga jo'natdi. Maktub amir Nasrullohga yetgach, ulamodan so'rab, u ham xuddi shunday javobni eshitdi. [2] Amir Nasrulloh Madalixonga xat yozib bu voqealarni tushuntirishini va xato yo'ldan qaytishini talab qiladi. Buning evaziga Buxoroning elchisini talabdi va yurish boshlaydi.

1840-yili Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi Xo'jandda bo'lib o'tgan to'qnashuvda Muhammadalixon mag'lubiyatga uchraydi. Amir Nasrullo Xo'jand hokimi sifatida Mahmud sultonni taynlab o'zi Buxoroga qaytadi. "Ibrat ul-xavoqinda" Muhammadalixonning onasi (Moxlaroyim) Xo'jandga kelib aka-uka yarashtirganligi, xon Toshkentni Sulton Mahmudxonga berib, Xo'jandni undan olganligi, Sulton Mahmudxon Toshkentga ketib, Xo'jandni Muhammadalixonga topshirgani qayd etilgan. [3] Buning natijasida O'ratepa va Xo'jand yerlari Qo'qonga qo'shib olinadi. Amir Nasrullo esa Muhamadalixon ustiga yurish boshlaydi.

Mang'itlar Naymanja va Amudaryo bo'ylaridan ko'p sonli askar to'plab, Farg'ona viloyatiga hujum qiladilar. Ularning hujumiga qarshi tura olmagan Qo'qonliklar bir hafta chidaydilar. Niyoz Muhammad Xo'qandiyning aytishicha, Qo'qon qulagandan so'ng Qo'qonni himoya qilayotgan olomon Muhammad Alixon va uning ukasini amir huzurida o'g'irlab ketishgan. Hakimxon To'raning boshqa hikoyasiga ko'ra, Xo'jandni taslim qilgan Qo'qon askarlari qaytib kelib, unga qarshi xalq qo'zg'oloniga duch kelganlarida, Muhammad Alixon o'z ukasi Sulton Mahmudxonga hukmronlikni topshiradi. Ammo kech edi, so'nggi chora barbod bo'ldi va Buxoro amiri xonlik darvozasiga yetib keldi. Birodarlar yana taxtga ega bo'lish umididan voz kechib, qochib ketishdi. Muhammad Alixon suyukli rafiqasi Xonposha Oyimni o'zi bilan olib qaytganida, amir askarlari bilan birga bo'lgan Mahmud xo'ja tomonidan asirga tushadi. Shahrixon ahli Sulton Mahmudxonni hibsga olib, amir huzuriga jo'natadi. [4] Mirzo Olim Mushrifning xabar berishicha, Xon va uning ukasi dushmandan qochib, Andijon yaqinidagi Ayim qishlog'ida bir kampirning uyida och va chanqagan holda tunab qolishgan. Uxlab yotganida ayol yonidagi masjidga borib, uning uyida xon uxlayotganini aytadi va shu tariqa ularni mang'it askarlari asirga oladi. 1842-yil 12-mayda Buxoro amiri Nasrulloning uchinchi harbiy tashabbusi bilan Qo'qon shahri qo'lga kiritildi. Shaharda istehkomlar yo'qligi Buxoro amirining qamal qilishini osonlashtirdi. Qo'qon xoni Muhammad Alixon va uning qarindoshlari: onasi Mohlar Oyim (Nodire Begim), ukasi Sulton Mahmud, voyaga yetmagan o'g'li Muhammad Aminxon va bir qancha kanizaklari o'limga hukm qilindi.

Keyingi xonzodalardan biri Sheralixonning Salimsoqxon (Abdurahmon) ismli o'g'li Buxoro qarshi qilgan harakatlariga qaramasdan, Amir Nasrullo uchun uni xonlik hududidan siqib chiqarib, Sheralixonni taxtga o'tkazgan siyosiy kuchlar yetakchisi Musulmonqul mingboshiga qarshi tura oladigan siyosiy kuch zarur edi. Amir Nasrullo, o'z navbatida, Salimsoqxonni qo'llab-quvvatlash orqali ikki tomonning ham zaiflashuvidan manfaatdor bo'lgan. [5] Salimsoqxon Amir Nasrullo bilan uchrashish uchun Buxoroga keladi. Amir unga g'amho'rlik qilib, faxriy sarpo berib, Chordaraga hokim qilib tayinlaydi. [6]

Huddi shu vaqtda yana bir quvilgan xonzoda Murodxon ham siyosiy sahnaga chiqadi. Murodxon deyarli o'ttiz yil g'arib diyorlarda ovora yurdi. Jumladan, bir necha yil Qorateginda yashadi va ancha yillar Buxoroda qiyinchilik bilan hayot kechirdi, u yerdan esa Xorazm viloyatiga ketib, so'ng Urganjdan baytulloh ziyoratiga iroda qildi, ammo muqaddas Mashhad viloyatiga yetgach, yonidagi safar anjomlariyu, bisotidagi bor-yo'q narsasini qizilboshlarga[1] talatdi va necha bir azobu kulfatda yana Xorazmga qaytib, bir necha kun o'sha yerda dam oldi. U yerdan tag'in Buxoroga keldi, ammo amir Nasrulloh uning holidan xabar olmagani sababli uch oy qabristonlarda tunab yurdi. Nihoyat amir Nasrullo yana rahm qilib o'z yonidan boshpana berdi. Bu vaqtda u uchun Qo'qon xonligi vaziyati yetilgan edi. Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlar tomonidan xonlik nazorati ostida bo'lganligi va boshqaruvda ko'rsatayotgan adolatsizliklaridan qoniqmagan xalq Toshkent va O'shda isyon ko'tardi. 1845-yilda qirg'izlar O'sh, Uchqo'rg'on va Oloyda ko'tarilib, qirg'iz va Qo'qon zodagonlari marhum Olimxonning qirg'iz xotinidan bo'lgan o'g'li ya'ni Murodbek(xon) bilan bog'lanishdi. Murodbek o'sha paytda O'ratepa shahrida yashar edi. Uni taxtga o'tirishga ko'ndirish uchun turli maktublar yubordilar. Bu orada O'sh va Oloyda yashovchi qirg'izlar birlashib, isyon ko'tarib, shaharlarni talon-taroj qiladilar. Vaziyatdan xabar topgan Muslumonqul zudlik bilan O'shga borib, u yerdagi qirg'iz qo'zg'oloniga aralashdi. Murodxon bir kechasi Isfarada hordiq chiqardi. O'shanda ikki ming kishi yig'ishga erishgan edilar. Ertasiga ul sarzamindan ko'chib, bir shabgir bilan Qo'qon viloyatiga yetib oldilar va o'sha 1260-yil sha'bon oyi boshida (2 kuni) jum'ada 1844-yil 16-avgust to'xtovsiz ravishda shaharga kirib, ul mamlakat kelinchagini osonlikcha bag'riga tortdilar. Shohlik bolidan bir tomchi ham yalamay, faqat bag'ir qonini ichgan va oliy martabali Otaliqxonning qoni tutgan Sheralixon bechorani darhol ushlab, shu zahoti shahid etdilar. Umri muddati ellik besh yil va Farg'ona davlati- da saltanati ikki yilu bir oyu yigirma besh kun bo'ldi. Murodxon Xo'qand shahrida saltanat taxtiga o'tirgach, barcha xosu avom xalq uni o'zining asl podshozodasi sifatida tan olib, xizmatiga kamarbasta bo'ldi. Hech bir jihatda va qech bir masala bo'yicha farmonidan tashqari qadam bosmadilar. Albatta, xalq hali bu paytda bu gulning ochilishi uzoqqa bormay, tez so'lishini va bu nihol meva bermasdan qurishini xayoliga ham keltirmagan edilar. Murodbek Musulmonqulning Qo'qonni tark etishidan foydalangan qirg'izlarning Avahat qabilasi yordamida Qo'qonni egallaydi. U 1845-yilda Sher Alixonni qatl qilib, taxtga o'tirdi. [7] U o'zini Buxoro amirining vassali deb e'lon qildi. Amir Nasrulloning shafqatsizligidan charchagan xalq bu holatga munosabat bildiradi. Hokimiyatdan ketishni istamagan Musulmonquli qirg'iz qo'zg'olonini bostirgandan so'ng Namanganga keladi va Shir Alixonning kichik o'g'li Xudoyorbek va uning qiziga uylanadi. Nikohdan so'ng Namangandan Qo'qonga kelib, Murodxonni o'ldiradi va 1845-yil 24-avgustda kuyovi Xudayorxonni taxtga o'tiradi.91 O'zini kuyovining regenti deb e'lon qilgan musulmonquli xonlik boshqaruvini butunlay o'z qo'liga oladi. Sarimsoqbekni Toshkentdan Qo'qonga olib kelib, qatl etish orqali butun xonlikka hukmronlik qildi va umuman Qo'qondagi qipchoqlarga qarshi turishi mumkin bo'lganlarni yo'q qildi. [8]

Xulosa va takliflar: Qo'qon xonzodalaring qochib boradigan yeri Buxoro amirligi edi. Chunki ko'chilik Buxoro hukmdorlari (amir Shohmuroddan tashqari) vaziyatdan foydalanishni o'ylagan. Ba'zilari niyatlariga yetgan ham misol tariqasida amir Nasrullo Murodxonni qo'llagani uchun u oliy hukmdor sifatida tan olgan qisqa vaqt bo'lsa ham. Qo'llangan xonzodalarning ba'zi birlari qondoshlariga qarshi kurashishdan ma'lum vaqtdan so'ng voz kechgan holatlar ham bo'lgan. Siyosiy

[1] Qizilbosh-(yoki Qizilboshlilar) – Eronning shia qabilalaridan tashkil topgan ko'chmanchi birlashmasi bo'lib, ular Safaviylar davlatining harbiy kuchini tashkil etganlar. Ular 12 imom sharafiga boshlariga 12 qizil yo'lli mato salla o'rab yurishgan, shuning uchun "Qizilbosh" deb nomlanganlar.

jihatdan qochoq xonzodalardan foydalanish ikki o'rtadagi munosabatlarni yomonlashtirsada, xonzodalardan foydalangan taraf uchun yaxshi qaror edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix.(Tarix yulduzlari) Fors-Tojik tilidan O'zbek tiliga tarjimon va izohlar muallifi tarix fanlar doktori Shodmon Vohidov. Toshkent 2014. B-139-263

2. Muhammadhakimxon To'ra. Muntahab at-tavorix. (Fors-tojik tilidan O'zbek tiliga tarjmon va izoxlar muallifi tarix fanlari doktori Shodmon Vohidov). Toshkent 2010. B-156

3. Niyoz Muhammad Xo'qandiy. (Shohruxbek Umarov). Ibratul Xavoqin. (Tarixi Shohruxiya) Toshkent: Turon zamin ziyo. 2014. B-145.

4. V Nalivkin, Kratkaya İstoria Kokandskogo Hantsva, b-143

5. Xoliqulov Ahmadjon Boymuhammadjonovich. " Buxoro amirligining tashqi siyosiy aloqalari" Toshkent 2022. B-54-55

6. Mirza Alim ibn Mirza Rahim Toshkandiy. Ansab as-salatin va tavarix al-xavakin. Toshkent. 2007. B-1142.

7. HÜSEYİN ŞEN ARAŞTIRMA MAKALESİ – RESEARCH ARTICLE KOKAND KHANATE IN PERIOD OF SHIR ALI KHAN (1842-1845)

8. P.P. Ivanov, Ocherki po Istorii Sredney Azii (XVI- Seredenia XIX v.), Izd., Vostochnoy Literaturı, Moskva 1958, b-211.